

Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) nima?

NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) oilalar, maktablar va hamjamiyatlarga farzandlarining kelajagi uchun birgalikda jamg'arish va sarmoya kiritish imkoniyatini taqdim etadi.

Bu davlat maktablari o'quvchilari uchun kollej va kasb-hunar tayyorgarligini yanada qulay va ochiq qilish maqsadida ishlab chiqilgan stipendiya va jamg'arma dasturidir. Ushbu dastur **har bir NYC davlat maktabi o'quvchisi** katta orzu qilishi, kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun moliyaviy mablag' jamg'arishi va bu yo'lda hamjamiyat ko'magini olishi uchun yaratilgan. NYC Kids RISE notijorat tashkilot bo'lib, **NYC davlat maktablari va Nyu-York shahri bilan hamkorlikda** Kollej uchun jamg'arish dasturini (Save for College Program) boshqaradi.

Dastur qanday ishlaydi?

Muvofiq bo'lgan bolalar, agar ota-onalari yoki vasiylari qatnashmaslikni tanlab, dasturdan chiqmasa, **avtomatik tarzda ro'yxatga olinadi va boshlang'ich 100\$ bilan bepul NYC stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) ega bo'ladi.** Oilalar **muayyan bosqichlarni bajargan holda 175\$ gacha mukofotlarga ega bo'lishlari mumkin** va **hamjamiyatlar esa Hamjamiyat stipendiyalari** orqali bolalar guruhlarining NYC stipendiya hisoblariga **qo'shimcha mablag' ajratish orqali qo'llab-quvvatlashi mumkin.** NYC stipendiya hisoblariga ajratilgan mablag'lar 529 jamg'arma hisobida investitsiya qilinadi. Ushbu hisob NYC Kids RISE tomonidan ishtirokchi o'quvchilar nomidan yuritiladi va boshqariladi.

Farzandining NYC stipendiya hisobini faollashtirgandan so'ng, oilalar farzandi foydasi uchun o'zlariga tegishli alohida kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun jamg'arma hisobini ochib, uni ulangan holatda bog'lashi mumkin. Shundan keyin, ular o'z moliyaviy imkoniyatlariga mos ravishda turli usul va miqdorlarda jamg'arishni boshlashlari mumkin.

Kimlar ishtirok etishi mumkin?

2025–2026 o'quv yilidan boshlab, NYC davlat maktablarida (shu jumladan, ishtirokchi charter maktablarda) **bolalar bog'chasidan to'rtinchi sinfgacha** o'qiydigan o'quvchilar, **oilalarining daromadi yoki immigratsion maqomidan qat'i nazar**, ushbu dasturda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar.

Dastur 2017-yildan boshlab geografik 30-maktab okrugida sinov tariqasida boshlanganligi sababli, 39 ta sinov maktabida o'qiyotgan har bir bolalar bog'chasidan beshinchi sinfgacha bo'lgan o'quvchi dasturda ishtirok eta oladi.

Farzandimning bepul NYC Stipendiya hisobini qachon faollashtirishim mumkin?

Farzandim NYC davlat maktabida (yoki ishtirokchi charter maktabda) bolalar bog'chasiga yoki 1-4-sinflarga birinchi marta qatnay boshlamoqda.

Farzandingizning NYC stipendiya hisobini **2026-yil yanvar oyida** faollashtirib, ko'rishingiz mumkin! Farzandingizning hisobi tayyor bo'lganda, sizga bu haqda maktabingiz va NYC Kids RISE xabar beradi.

Agar siz boshqa farzandingiz uchun NYC stipendiya hisobini allaqachon faollashtirgan bo'lsangiz, nyckr.org/intro-login manzili orqali Jamg'armalar trekeriga qayta kirishingiz va yanvar oyida yangi huquqqa ega bo'lgan farzandingizni qo'shishingiz mumkin.



Hozircha dastur haqida batafsil ma'lumotni nyckidsrise.org saytida o'qing yoki nyckr.org/events-cal manzilida onlayn seminarlarga qo'shiling.

Farzandim hozirda 1-, 2-, 3- yoki 4-sinfda o'qiydi va 2024–2025 o'quv yilida NYC davlat maktabida (yoki ishtirokchi charter maktabda) tahsil olgan.

Tabriklaymiz! Agar siz dasturdan chiqishni tanlamagan bo'lsangiz, farzandingizda kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun **boshlang'ich 100\$** bilan bepul NYC stipendiya hisobi allaqachon mavjud. Hisobni faollashtirish va ko'rish uchun quyidagi bosqichlarni bajaring hamda **qo'shimcha 25\$ mukofot ishlab oling.**



nyckr.org/st-register saytiga tashrif buyuring. Farzandingizning uy pochta indeksi, tug'ilgan sanasi va O'quvchi ID raqamini kiriting. Keyin "Yuborish" tugmasini bosing. Maktabingizdan ham yordam so'rashingiz mumkin!

Eng ko‘p beriladigan savollar

1. NYC Stipendiya hisobidagi pul nimaga foydalanilishi mumkin?

NYC stipendiya hisobidagi mablag‘lar 529 jamg‘arma hisobida investitsiya qilinadi va AQSHda yoki chet eldagi huquqqa ega bo‘lgan istalgan muassasada oliy ta‘limga oid turli xarajatlar uchun foydalanilishi mumkin. An’anaviy to‘rt yillik kollej va universitetlardan tashqari, huquqqa ega bo‘lgan boshqa ta‘lim muassasalariga ham quyidagilar kiradi: jamoat kollejlari, kasb-hunar va texnik maktablari, akkreditatsiyadan o‘tgan amaliyot dasturlari hamda onlayn daraja dasturlari. Stipendiya mablag‘lari o‘qish to‘lovi, yig‘imlar, uskunalar, ayrim turar joy xarajatlari va hatto ko‘pincha boshqa stipendiyalar qoplamaydigan darsliklar uchun ham ishlatilishi mumkin.

2. Immigratsion maqom qatnashish imkoniyatiga qanday ta‘sir qiladi?

Ta‘sir qilmaydi! Barcha huquqqa ega o‘quvchilar immigratsion maqomidan qat‘i nazar Kollej uchun jamg‘arish dasturida (Save for College Program) ishtirok etishlari mumkin. Oilalar farzandini dasturga ro‘yxatga olish va NYC stipendiya hisobiga ega bo‘lishi uchun hech qanday Ijtimoiy himoya raqami (Social Security Number, SSN) yoki Soliq to‘lovchining individual identifikatsiya raqami (Individual Taxpayer Identification Number, ITIN) taqdim etishlari shart **emas**.

3. Farzandim maktab okrugidan bitiruvga yetmasdan avval boshqa okrugga ko‘chib ketga, uning stipendiya hisobiga nima bo‘ladi?

Farzandingiz NYC stipendiya hisobini olgach, agar u Nyu-York shahridagi boshqa davlat maktabi yoki charter maktabga ko‘chsa, bu hisobdan foydalanish huquqi saqlanib qoladi. Farzandingiz, shuningdek, dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq barcha imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega bo‘lib qoladi. Agar farzandingiz NYC davlat

maktabi tizimidan chiqsa, u NYC stipendiya hisobida allaqachon mavjud bo‘lgan mablag‘dan foydalanishda davom eta oladi, biroq qo‘shimcha mukofotlar olish huquqiga ega bo‘lmaydi.

4. NYC stipendiya hisobining davlat imtiyozlariga ta‘siri qanday?

NYC stipendiya hisoblari NYC Kids RISE tomonidan boshqariladi va egalik qilinadi. Shu sababli, ushbu hisobga ega bo‘lish o‘quvchi yoki oilaning davlat imtiyozlariga ariza topshirish jarayoniga ta‘sir **qilmaydi**. Agar oila o‘z nomiga ochilgan kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun jamg‘arma hisobida mablag‘ saqlasa, ushbu moliyaviy aktiv ba‘zi davlat imtiyozlariga ta‘sir qilishi mumkin.

5. NYC stipendiya hisobiga ega bo‘lish moliyaviy yordam olish huquqiga qanday ta‘sir qiladi?

NYC stipendiya hisoblari NYC Kids RISE tomonidan boshqariladi va egalik qilinadi. Shu sababli, bu hisobga ega bo‘lish mablag‘ hisobida saqlanayotgan davrda o‘quvchining moliyaviy yordam olish huquqiga ta‘sir **qilmaydi**. Farzandingiz kollej yoki kasb-hunar tayyorgarligiga yaqinlashgani sayin, NYC Kids RISE stipendiya hisobidagi mablag‘ni bolaning ta‘limi uchun ishlatish moliyaviy yordamga qanday ta‘sir qilishi mumkinligi haqida qo‘shimcha ma‘lumot beradi. Buning ta‘siri bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Agar oila o‘z nomiga kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun alohida jamg‘arma hisobida mablag‘ saqlasa, bu jamg‘armalar farzandning moliyaviy yordam paketiga ta‘sir qilishi mumkin.



Kollej uchun jamg‘arish dasturi (Save for College Program) va tsavol-javoblar haqida batafsil ma‘lumot olish uchun quyidagi manzilga tashrif buyuring: nyckr.org/faq.